

TASDIQLAYMAN



Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti direktori

A.I. Atabekov

2023 y.

Raqamli texnologiyalar va suniy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutida "Korrupsiya va uning oqibatlari" mavzusidagi davra suhbat

BAYONNOMASI

2023-yil 12-aprel

Toshkent sh.

Rais: A.I. Atabekov

Kotib: S. Aminov

Qatnashdilar:: N. Ravshanov, N. Azamova, A. Xakulov, A. Nuriddinov, G'. Botirov, J. Nishonov, A. Isanov, D. Xodjayeva, O. O'ljaboyev, F. Gulamova, A. Bimbetov, U. Oxundadayev, I. Asqaraliyeva, N. Bo'ronov, O. Norqulov, M. Raximova, A. Jabborov, G'. Oripov

KUN TARTIBI:

1. Korrupsiyaning oqibatlari hamda ushbu illatga qarshi kurashish choralari to'g'risida.
2. Turli masalalar (savol va javob, takliflar).

ESHITILDI: Kun tartibi bo'yicha Raqamli texnologiyalar va suniy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institut direktori A. I. Atabekov so'zga chiqdi hamda davra ishtirokchilarini kun tartibi bilan tanishtirdi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida 2021-yil 6-iyun PQ -5177-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori va Axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 20-dekabdagi buyrug'iga asosan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi va ichki audit xizmati joriy qilindi. Ushbu qaror va buyruqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida institutga komplayens nazorati bosh mutaxasisi J.B. Nishonov ishga qabul qilindi.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat quydagi vazifalarni bajaradi;

- Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Institut faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf etish bo'yicha takliflar beradi;

ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi va xulosalar tayyorlaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishda ishtirok etadi.

Institutda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida institutda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;

Yuqoridagi vazifalarni samarali tashkil qilishda jamoa bilan birgalikda tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

SO'ZGA CHIQDI: Institutning komplayens nazorati bosh mutaxasisi J.B.Nishonov so'zga chiqib davra ishtirokchilariga korrupsiyaning oqibatlari hamda ushbu illatga qarshi kurashish yuzasidan olib borilayotgan ishlar va davlat rahbarining bir qancha qarorlari to'g'risida ma'lumotlar berildi. Jumladan, davra suhbatida ishtirokchilariga korrupsiyaning oqibatlari bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. Taqdimotlarda, har qanday ma'lumotlarni elektron tarzda olish inson omilini kamaytirish fuqarolarga bir qancha yengillik berdi. Bu bilan birqatorda kamchiliklar ham mavjud bulardan hamkorlar bilan harid jarayonida manfaatlar to'qnashuvi, hodimlarni ishga qabul qilinayotganda manfaatlar to'qnashuvida korrupsiyaga duch kelinmoqda. Yuqoridagi korrupsion holatlarni bartaraf etishda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutning o'rni juda kattadir har bir tashkilot va muassasalarga tizimli ravishda elektron platformaga o'tkazish inson omilini kamaytirish bilan bir qatorda institutning ichki elektron platformalarini ishonchli va xafsizligini ta'minlashi lozimdir.

“Korrupsiya va uning oqibatlari” mavzusidagi davra suhbat yakunlari yuzasidan:

QAROR QILINDI:

1. Davra suhbatida ishtirok etayotgan mas'ul xodimlar o'zining tegishli bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik talablariga, davra suhbatida ko'tarilgan masalalarga rioya etilishini ta'minlasinlar.
2. Bosh yuristkonsult (N.Rajabov), komplayens nazorati bosh mutaxasisi (J.Nishonov):Vazirlik tomonidan taqdim etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan namunaviy nizomlarni ko'rib chiqsin hamda Institut tomonidan tasdiqlanishi va joriy etilishi yuzasidan choralarni ko'rsin.

Kotib



S.Aminov